TRANSPORT VOSITALARI VA ATROF MUHIT

Mamajonov Mirkamol
Farg'ona politexnika instituti
Murodov Mirshohid
Farg'ona politexnika instituti
mmirkamol107@gmail.com

Annotatsiya: Bu mavzu yuzasidan qisqacha hulosam shuki transport vositalaridan kundalik hamda boshqa ilojisi bor bo’lgan kasiplarda iloji bo’lsa velosepedlardan foydalanishimiz lozim. Aqalli shu yo’l bilan atrof muhidni ifloslanishini qisman bo’lsa ham oidini olishga hissamizni qo’shgan bo’lamiz.

Kalit so’zlar: transport, atrof muhit, transport vositalarini atmosferaga tasiri, atrof muhitni ifloslanishini oldini olish, ekologik toza transport vositalar.

Transport vositalari va atrof muhit - hozirgi kunda turli hil transport vositalari mavjud bo'lib turli markalari ham mavjud va ular soni kundan kunga ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda atrof muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Transportlardan chiqayotgan gazlar atrof muhitga jiddiy zarar keltirmoqda.

Xozirgi davrda inson salomatligi uchun eng xavfli manbalardan yana biri avtotransport vositalaridan chiqadigan zaxarli gazlardir. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQSH va Yaponiyada atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar ichida avtotransport vositalari oldingi o'rinda turadi. Xorijiy mamlakatlar atmosfera havosini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi, uglevodorodlar, shuningdek, azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60-70 % ini tashkil qilsa, bizda 14 % ini tashkil qiladi. Umuman, ichki yonuv vositalari atmosfera xavosini ifloslantirish borasida salmoqli o'rinni egallaydi. MDXda avtotransport vositalari 1988-yilning o'zida 35,8 mln.tonna zararli moddalarni havoga chiqarib tashlagan. Moskva, Sankt-Peterburg, Toshkent, Erevan va boshqa shaharlar havosida is gazi ruxsat etilgan mikdoridan 3-10 barobar ziyod ekanligi qayd etilgan.

Qizig'i shundaki, sulfat angidridi atmosfera xavosida turli reaksiyalarga kirishib, atmosfera xavosi namligida erib, qataliz hamda fotokimyoviy jarayonlar vositasida oqsidlanadi va pirovardida, sulfat kislotasini hosil qiladi. Bunday kimyoviy birikmalar 750-1500 metr balandlikka ko'tarilib, hatto 3000-4000 metr masofaga yetadi. Shuning uchun sanoat korxonalari joylashgan markazlar atrofidagi turar joylarda sulfat kislotasi yomg'ir bo'lib yog'adi va tabiatga shu jumladan, tirik organizmlarga katta zarar etkazadi.

Agar 1950-yili atmosferaga 70 mln.tonna, 1975-yili 120 mln.tonna, 1980- yili 181 mln.tonna zaxarli moddalar chiqarib tashlangan bo'lsa, 2000-yilda 280 mln.tonna tajavvuzkor moddalar atmosferani bulg'ashi taxmin qilinmoqda. Atmosfera havosining kundan-kunga, yildan-yilga bunchalik ifloslanib borishiga avtotransportning "aybi" borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuni ham qayd qilish kerakki, avtomabillar purkagan gazlar tarkibidagi is gazlari (SO), azot kush oksidi(NO2), uglevodorodlar bilan bir qatorda juda zaxarli modda qurg'oshin ham mavjud.Avtotransport vositalari tomonidan atmosfera havosining ifloslanishi dudbo'ronlardan chiqadigan gazlarning tarkibi va mikdoriga, transport xarakati tezligiga, mashinalar soniga, ko'chalarning katta-kichikligiga ularning loyixasiga, relefiga, turar joylarning topografik xolatiga, joylarning xolatiga, iqlim sharoitiga va meteorologik omillariga bog'lik bo'ladi. Avtotransportlarning atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy moddalari is gazi, uglevodorodlar, azot oksidlari, aldegidlar, ketonlar, akrolein, qo'rg'oshin va boshqalar aksariyat xollarda gigienik nuktai nazardan juda zararli hisoblanib, belgilangan me'yordan ortgan xolda bo'ladiAvtomobil transporti -yuk va yo‘lovchilarni relssiz yo‘llarda tashishga mo‘ljallangan transport turi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. Bajaradigan ishiga qarab umumiy foydalanilmaydigan (ayrim korxonalar, tashkilotlar uchun xizmat qiladigan) Avtomobil transporti hamda qaysi tashkilotga mansubligidan qat’i nazar yo‘lovchi va yuk tashuvchi umumiy foyda-lanishdagi Avtomobil transporti ga bo‘linadi. Shuningdek shaxsiy foydalanishdagi yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ham mavjud (qarang Avtomobil). Avtomobillarning har qanday yo‘llarda yura olishi, yo‘lni tez o‘zgartira olishi, yuk

ortish va tushi-rish joylariga bevosita bora olishi, yuk hamda yo‘lovchilarni bir transport turidan ikkinchisiga o‘tkazmay tashishga imkon beradi. Natijada yo‘lovchi va yuk tashish tezlashadi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo‘jaligi, markazlashgan tartibda xalqaro, shaharlararo va mahalliy yo‘llarda ta-shishda qo‘llaniladi. Avtomobil transporti aviatsiya, dengiz va daryo transporti, shuningdek temir yo‘l transporti bilan uzviy bog‘langan. Avtomobil transporti uncha uzoq bo‘lmagan masofalar uchun foydalanishda eng qulay transport turi hisoblanadi. Shu bilan birga boshqa transport turlarida tashish noqulay bo‘lgan yuklar, xususan, tez buziladigan mahsulotlarni uzoq, masofalarga tez va qulay yetkazib berishda ham ko‘p foydala-niladi.Avtomobil transporti 19-asr oxirida paydo bo‘ldi, 20-asrning 20-yillaridan qisqa masofalarga yuk va yo‘lovchi tashishda temir yo‘l va daryo trans-porti bilan raqobat qila boshladi. Avto-mobil sanoatining rivojiga qarab, tez sur’atlarda taraqqiy etdi. Mamlakatlar avtomobil parkining asosiy qismi yi-rik ixtisoslashtirilgan yuk va yo‘lovchi tashish korxonalari va birlashmalari tarkibiga kiradi. Bu esa mehnat unum-dorligini yuqori sur’atlarda o‘stirish va Avtomobil transporti vositalaridan samarali foydala-nishni ta’minlaydi.Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mam-lakatlarda tashilgan yuklarning umumiy hajmida Avtomobil transporti hissasi katta salmoqqa ega. Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Yaponiya, Kanada, Rossiyada Avtomobil transporti taraqiy etgan. AQShda yuk avtomobil parki turli sa-noat va savdo kompaniyalari, korxonalar va ayrim shaxlarga tegishli bo‘lib, jami avtotransport vositalarining 10% umu-miy foydalanishdagi yuk tashish kompa-niyalariga to‘g‘ri keladi.O‘zbekistonda A.T. 20-asr boshlarida paydo bo‘ldi, unga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo‘lgan. Dastlabki avtobus katnovi 1906 yilda Farg‘ona – Marg‘ilon marshrutida yo‘lga qo‘yilgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909 yildekabrda qatnay boshladi, 1910 yil chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va 1 ta 40 o‘rinli avtobus ishladi.1921 yilda Avtomobil transporti ixtiyorida 40 yengil va 15 yuk avtomobili hamda Toshkent avto-mobil ta’mirlash ustaxonasi bo‘lgan. 30-yillarda Avtomobil transporti rivojlanishi bilan qattiq qoplamali yo‘llar qurilishi boshlandi, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish korxonalari, kadrlar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari ochildi. 1939 yil 25 iyulda O‘zbekiston Avtomobil transporti xalq

komissarligi tashkil etildi. 50-yillarda avtotransportda yuk va yo‘lovchilar tashish o‘sdi. 60–80-yillarda respubli-kada avtotransport vositalarining tur tarkibi ko‘paydi. 1991 yilga qadar O‘zbekiston xalq xo‘jaligida asosan Rossiya ("ZIL", "Moskvich" – Moskva shahri; "GAZ" yuk va "Volga" yengil avtomo-billari – Nijniy Novgorod shahri; "Ka-mAZ" – Naberejniye Chelni shahri; "Jigu-li" – Tolyatti shahri; "UAZ" kabi mashina rusumlari ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda esa mashinalarni soni kundan kunga oshib bormoqda va bu o'z navbatida atrof muhitni yomonlashishiga olib keladi. Biz atrof muhitni ifloslanishini oldini olish maqsadida ko'proq piyoda yurishimiz va uzog'imizni yaqin qilish maqsadida velosipedlarda foydalansag atrof muhitni iflaslanishini qandaydir ma’noda oldini olishga o'z xissamizni qo'shgan hisoblanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Jabbarov "Ximiya va atrof-muxit", Toshkent "O'qituvchi", 1992 yil 13-27 betlar.

2. M.Nabiev "Inson va biosfera", Toshkent "O'qituvchi", 1995 y. 2435 bet.

3. Yu.SHodimetov "Ijtimoiy ekologiyaga kirish", Toshkent "O'qituvchi", 1994 yil, 169- 171 betlar.